

KOREYS TILIDA MUNOSABAT NOMLARINING LINGVISTIK VA LINGVOMADANIY ASOSLARI

Rojiboyev Ilhomjon G‘ayratjon o‘g‘li,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: ilhomjonrojiboyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilidagi munosabat nomlarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu nomlar koreys jamiyatidagi ijtimoiy ierarxiya, madaniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni ifodalovchi muhim til birliklari sifatida baholanadi. Maqolada munosabat nomlarining leksik-semantik xususiyatlari, morfologik shakllanishi, sintaktik funksiyasi hamda ularning fe’l darajalari va hurmat ifodalari bilan bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, bu nomlarning madaniy ildizlari, ya’ni Konfutsiylik ta’limoti va xalqning qadimiy qadriyatlar bilan aloqadorligi ilmiy asosda ochib berilgan. Maqolada tarixiy taraqqiyot, zamonaviy transformatsiya va til-madaniyat munosabati nuqtai nazaridan umumiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: koreys tili, murojaat nomlari, lingvomadaniyat, til va madaniyat, Konfutsiylik, ijtimoiy ierarxiya, hurmat shakllari, madaniy qadriyatlar, tilshunoslik, semantika.

Biror kishi bilan muloqotga kirishish uchun qilinishi kerak bo‘lgan birinchi masala unga murojaat etishdir. Koreys tilida ham boshqa tillardagi singari ko‘p miqdordagi leksemalar mavjud bo‘lib, odamlarga murojaat turli ko‘rinishlarda, taxallus va laqablar, nasl-nasab, ijtimoiy mavqe, lavozim va hokazolar murojaat birligi sifatida ishlatiladi. Bunda suhabatdosh bilan aloqani davom ettirish jarayonida undalma omili muhim hisoblanadi, zero biror ma’lumotni yetkazish, so‘rash, biror harakatni talqin etish uchun aynan undalma orqali murojaat etish lozim bo‘ladi. Tinglovchiga murojaat etish paytida uning yoshi, jinsi, mavqeyi, roli, jamiyatdagi psixologik va shaxsiy munosabatlari nazarga olinadi. Murojaat birliklari koreys tilini o‘rganayotgan chet ellik talabalar duch keladigan asosiy o‘rganish elementlaridan biridir. Holat va vaziyatdan kelib chiqib murojaat nomlaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish lozim. Koreya jamiyatida shaxsga tegishli unvon va atamalardan foydalanib murojaat qilish ijtimoiy hayotning asosidir. Xususan, Koreya sotsial muhitida murojaat birliklaridan qay darajada foydalanishingizga qarab koreys tilini bilish darajangiz yaxshi yoki yomonligini aniqlash mumkin. Masalan, chet el fuqarosi Koreyada tasodifan avtohalokatga uchrassa va u bu holatda koreys darsliklarida o‘rgangani bo‘yicha “당신” “siz” etiket birligini qo‘llagan holda suhabatdoshga qarata “당신이 잘못한 것 같은데요” “menimcha siz noto‘g‘ri harakat qildingiz”, deya murojaat qilsa, o‘zi bilmagan tarzda holatni og‘irlashtirishi mumkin va bu vaziyatning keskinlashishiga olib keladi. “당신” “siz” murojaat birligi

suhbatdoshni chaqirish uchun foydalilaniladigan atama emas, aksincha bu so‘z insonni haqorat qilish, mensimaslik, pastga urish kabi ma’nolarni ifodalaganini uchun undan foydalanish kishini o‘zi bilmagan holda noqulay vaziyatga solib qo‘yadi. Suhbatning boshlanishida murojaat nomlarining noo‘rin qo‘llanilganligi sababli, suhbat muammoli tarzda yakun topishi mumkin [7].

Koreys tilining asosiy xususiyatlaridan biri, uning jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlar bilan bevosa bog‘liq bo‘lgan til tizimi ekanidir. Xususan, munosabat nomlari (qarindoshlik atamalari, murojaat shakllari, lavozim asosidagi chaqiriqlar) koreys tilining nafaqat leksik, balki pragmatik, ijtimoiy va lingvomadaniy tizimlarida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu bo‘limda koreys tilidagi munosabat nomlarining lingvistik shakllanishi, ularning semantik xususiyatlari, ijtimoiy maqom bilan bog‘liqligi va eng muhimi, ularning madaniyat orqali qanday shakllanganligi tahlil qilinadi.

“Koreys tili izohli lug‘ati” “표준국어대사전”da murojaat so‘zlari “shaxs yoki ob’ektni chaqiruvchi so‘z” deb ta’riflansa [8], “Yonsei koreys tili lug‘ati” “연세한국어사전”da “murojaat nomlari boshqa shaxsni chaqiradigan yoki unga ishora qiluvchi ism bo‘lib, ma’lum bir ob’ektga ishora qiladi”, deb ta’riflanadi [9]. “Murojaat birliklari” – bu shaxs yoki narsaga nisbatan qo‘llaniladigan so‘zdir. Boshqa shaxsni chaqirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat etishni anglatib ikkinchi va uchinchi shaxsga qarata unga mos keladigan unvon va birliklardan foydalanishni bildiradi. Murojaat nomlari koreys tili va madaniyatining “eng nozik nuqtasi” hamda “ijtimoiy munosabatlar modeli” deb e’tirof etiladi.

Koreys tilshunoslari munosabat nomlari atamasini murojaat birliklari, murojaat shakllari, ism, unvon, ikkinchi shaxs olmoshlari, qarindoshlik aloqalari va boshqa so‘zlar kabi turlarga ajratishadi.

Park Kap Su (박갑수) [10] koreys tilidagi murojaat birliklarini undov so‘zlar, ismga qo‘shiluvchi affiks, ijtimoiy o‘zlik, qarindosh-urug‘chilik aloqalari, to‘liq ism-sharif, ot birikmalari, hududiy yashash manzillari va xorijiy o‘zlashtirilgan so‘zlar kabi turlarga ajratadi. Li Ik Sok (이익섭) [11] esa koreys tilidagi etiket birliklari tizimining murakkab ekanligini ularni olmoshlar, unvonlar va ism-sharif kabi turlarga ajratish taklifini bildirgan. Park Chong Un (박정운) [12] o‘z tadqiqotlari natijasida etiket birliklarini ism, lavozim, qarindoshlik shajarasini, olmoshlar, unvonlar, nominal so‘zlar, do‘stona chaqiriqlar kabi turlarga ajratgan.

1-jadval. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda keltirilgan murojaat va ko‘rsatkich so‘zlarining doirasi

Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar	Tadqiqot doirasi
Wang Han-seok (2005)	Murojaat so‘zlar, Ko‘rsatkich so‘zlar, Chaqiriq so‘zlar
Lee Jeong-bok (2014)	Murojaat so‘zlar, Ko‘rsatkich so‘zlar, Chaqiriq so‘zlar

Kang Sosan va Jeon Eunju (2013)	Murojaat so‘zlar, Ko‘rsatkich so‘zlar
------------------------------------	---------------------------------------

Avvalo, Wang Hanseok (2005) [5] “murojaat” yoki “murojaat so‘zlar” (appellation name yoki call name) tushunchasini Braun, Fasold, Oyetade kabi chet ellik olimlarning tadqiqotlariga asoslanib quyidagicha izohlaydi: “Gapiruvchi suhbat davomida suhbatdoshini ko‘rsatish uchun ishlatadigan so‘zlar, iboralar yoki ifodalar” degan umumiy ma’noni anglatadi. Murojaat so‘zlar (**호칭어**) bir nechta o‘zaro bog‘liq tushunchalar yoki toifalardan – ya’ni:

- **지칭어** (ko‘rsatkich so‘zlar);
- **호출어** (chaqiriq so‘zlar);
- **존댓말** (hurmat ifodalari) bilan aniq farqlanishi kerak, deb ta’kidlaydi.

지칭어 (ko‘rsatkich so‘zlar) – bu gapiruvchi suhbat davomida biror narsani yoki shaxsni tilga olib ko‘rsatuvchi so‘zlar. **호출어** (chaqiriq so‘zlar) – suhbatdoshning e’tiborini jalb qilish uchun ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib, suhbatdosh allaqachon e’tibor qilganidan keyin uni bevosita chaqirishda ishlatiladigan murojaat so‘zlaridan farq qiladi.

존댓말 (hurmat ifodalari) – agar murojaat so‘zleri keng ma’noda tushunilsa, u holda bu tushunchaga hurmat shakllari ham kiradi. Ammo agar tor ma’noda qaralsa, unda faqatgina suhbatdoshga nisbatan ishlatiladigan hurmat so‘zlar (**청자 존대어**) bundan chiqarib tashlanadi va murojaat so‘zleri faqat boshqa ifodalar bilan cheklanadi.

Lee Jeongbok (2014) [6] murojaat so‘zlarini (call name) quyidagicha ta’riflaydi:

“Gapiruvchi suhbatdosh (ya’ni tinglovchi) yoki suhbat joyida bo‘lmagan uchinchi shaxsni chaqirish yoki ko‘rsatish uchun ishlatadigan ifodalar.” Shu bilan u uchinchi shaxsga nisbatan ishlatiladigan murojaatlarni ham bu ta’rif doirasiga kiritadi. Shuningdek, u koreys tilida murojaat so‘zleri (**호칭어**) ni: ko‘rsatkich so‘zler (**지칭어**) bilan bog‘liq bo‘lgan atama deb hisoblaydi, va hatto ko‘rsatkich so‘zlarni o‘z ichiga oluvchi ustun tushuncha (**상위어**) deb ta’kidlaydi. Ya’ni, ustun tushuncha sifatida murojaat so‘zleri: tinglovchiga nisbatan ishlatiladigan chaqirish va ko‘rsatish ifodalarini, hamda suhbat joyida bo‘lmagan uchinchi shaxsga nisbatan ko‘rsatish ifodalarini ham o‘z ichiga oladi. Uning ta’rifiga ko‘ra:

Ko‘rsatkich so‘zler (**지칭어**) – bu tinglovchi yoki uchinchi shaxsga nisbatan ishlatiladigan ko‘rsatish ifodalar.

Murojaat so‘zlari (호칭어) esa – tinglovchi yoki uchinchi shaxsga nisbatan ishlatiladigan chaqirish ifodalari deb qaraladi.

Chaqiriq so‘zlar (호출어, summons) esa – tinglovchining e’tiborini jalg qilish uchun ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib, murojaat so‘zlaridan alohida ko‘riladi.

Kang Sosan va Jeon Eunju (2013) [4] murojaat so‘zlarini (호칭어) “gapisuvchi suhbatdoshini chaqirish uchun ishlatadigan so‘z” deb ta’riflagan. Ko‘rsatkich so‘zlar (지칭어) ni esa “gapisuvchi suhbat davomida suhbatdoshini, o‘zini yoki uchinchi shaxsni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan so‘zlar” deb belgilagan.

Bundan farqli o‘laroq, chakarish so‘zlar (호출어) ni Wang Hanseok (2005) va Lee Jeongbok (2014) alohida tushuncha sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Kang Sosan va Jeon Eunju murojaat so‘zlarining bir turi sifatida “diqqatni jalg qilish turi bo‘lgan murojaat so‘zlar” deb nomlagan.

“Diqqatni jalg qilish turi bo‘lgan murojaat so‘zlar” ning ta’rifiga ko‘ra, ular tinglovchining e’tiborini jalg qilish orqali gapisuvchi o‘zining tinglovchisini chaqirayotganini bildiradi. Ushbu turdagil murojaat so‘zlar, gapisuvchi va tinglovchi o‘rtasida ilgari mavjud bo‘lgan bilish yoki yaqinlik darajasi past bo‘lganda yoki noma’lum munosabatlar bo‘lganda ishlatiladi.

2-jadval. “Murojaat so‘zlar va ko‘rsatkich so‘zlarining ta’riflari haqidagi ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar”

Mualliflar	Murojaat so‘zlar (호칭어)	Ko‘rsatkich so‘zlar (지 칭어)	Chaqiriq so‘zlar (호출어)
Wang Hanseok (2005)	Suhbatdoshni chaqirishda ishlatiladigan so‘zlar, iboralar yoki ifodalar	Gapisuvchi suhbat davomida suhbatdoshini ko‘rsatish uchun ishlatadigan so‘zlar	Suhbatdoshning e’tiborini jalg qilish uchun ishlatiladigan so‘zlar
Lee Jeongbok (2014)	Suhbatdoshni chaqirishda ishlatiladigan so‘zlar	Suhbatdoshini yoki uchinchi shaxsni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan so‘zlar	Suhbatdoshning e’tiborini jalg qilish uchun ishlatiladigan so‘zlar

Ushbu jadvalda turli mualliflar tomonidan murojaat so‘zlar, ko‘rsatkich so‘zlar va chaqiriq so‘zlar ta’riflari qanday farq qilganligi va bir-biri bilan qanday aloqada ekanligi ko‘rsatilgan. Ushbu ishda Kang Sosan va Jeon Eunju (2013) tadqiqotlariga asoslanib, murojaat so‘zlar “gapisuvchi tinglovchini chaqirish uchun ishlatiladigan so‘z” deb ta’riflanadi, ko‘rsatkich so‘zlar esa “gapisuvchi suhbat davomida tinglovchi, o‘zi yoki uchinchi shaxsni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan so‘zlar” deb belgilangan. Chaqiriq so‘zlar (호출어) esa suhbatdoshni chaqirish uchun ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib, bu murojaat so‘zlar bilan bir xil toifaga kiradi va ular murojaat so‘zlarining turli quyi turlaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi.

3-jadval. Ushbu tadqiqotda belgilangan murojaat so‘zлari (호칭어) va ko‘rsatkich so‘zлar (지칭어) ta’riflari:

Tushuncha	Ta’rif	Misol
Murojaat so‘zлari (호칭어)	Gapiruvchi suhbatdoshni chaqirishda ishlatiladigan yoki ifoda.	선생님, 어디 가세요? 저기요, 신촌역이 어디 있는지 아세요? Ustoz, qayerga ketyapsiz? Hoy, Shinchon bekti qayerdaligini bilasizmi?
Ko‘rsatkich so‘zлar (지칭어)	Gapiruvchi suhbat davomida tinglovchini, o‘zini yoki uchinchi shaxsni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan so‘zлar.	저도 아침에 그 뉴스를 봤어요. 선생님께서는 집에 계세요? 걔는 내일도 일해? Men ham ertalab o‘sha xabarni ko‘rdim. Siz uydamisiz? U kishi ertaga ham ishlaydimi?

Ko‘rib turganingizdek, Koreyada ham bir qancha olimlari o‘zining ilmiy ishlari orqali munosabat nomlariga bir vaqtning o‘zida bir xil yondashgan deb ham, farqli yondashgan deb ham qarashimiz mumkin. Ularning olib borgan ishlari bir-birini to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Munosabat nomlarining lingvistik xususiyatlari haqida biroz to‘xtaladigan bo‘lsak, uning leksik-semantik, morfologik, sintaktik va pragmatik, stilistik va funksional xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

1. Leksik-semantik xususiyatlar

Koreys tilidagi munosabat nomlari (호칭어) – bu shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy, oilaviy yoki institutsional aloqalarni bildiruvchi leksik birlklardir. Ular so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi nisbiy maqom, yosh, jins, ijtimoiy rol yoki yaqinlik darajasini ifodalaydi. Bu nomlar biologik (qarindoshlik) va ijtimoiy (lavozim, hurmat) mezonlarga asoslanadi.

Masalan:

- Qarindoshlik asosidagi nomlar:

형 (hyung – aka), 누나 (nuna – opa), 아버지 (abeoji – ota), 어머니 (eomeoni – ona).

- Lavozim yoki rol asosidagi nomlar:

선생님 (seonsaengnim – o‘qituvchi), 교수님 (gyosunim – professor), 사장님 (sajangnim – direktor), 선배 (seonbae – tajribaliroq hamkasb yoki talaba).

Bu nomlarning semantik yuklamasi jamiyatda hurmat, tartib, va ijtimoiy nisbatni ifodalaydi, shuningdek, suhbat kontekstiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

2. Morfologik xususiyatlar [1]

Munosabat nomlari ko‘pincha affikslar orqali ijtimoiy va emotsiyal bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Hurmat yoki do‘stlik darajasini bildiruvchi qo‘sishimchalar ularga bog‘lanadi.

Asosiy morfologik birliklar:

- **-님 (-nim)** – hurmat shakli.

Masalan: 어머님 (eomeonim – onaxon), 교수님 (gyosunim – hurmatli professor), 사장님 (sajangnim – direktor janoblari).

- **-씨 (-ssi)** – tengdosh yoki neytral murojaatda ishlataladi, odatda ism bilan birga keladi:

예: 김철수 씨 (Kim Cheol-su ssi – hurmatli janob Kim Cholsu).

- Diminutiv yoki yaqinlik ko‘rsatkichlari:

예: 엄마 (eomma – “ona”ning yaqin murojaat shakli), 아빠 (appa – ota uchun shaxsiy yaqin murojaat).

Ba’zi hollarda nomlar morfologik jihatdan bir necha komponentdan iborat kompleks birliklar bo‘lishi mumkin:

예: 장인어른 (jangin-eoreun – qaynota) → 장인 (qaynota) + 어른 (kattalik, hurmat).

3. Sintaktik va pragmatik xususiyatlar

Koreys tilida munosabat nomlari ko‘pincha gap boshida, sarlavha sifatida yoki tinglovchining maqomini belgilashda ishlataladi. Ammo eng e’tiborli jihat – bu nomlarning gapning qolgan qismini (ayniqsa fe’l formasini) bevosita belgilashidir.

Misol:

- 형이 먹었다. (Hyung-i meogeotda) – “Akam yedi.” (oddiy shakl)
- 형께서 드셨습니다. (Hyung-kkeseo deusyeotseumnida) – “Akam tanovul qildilar.” (yuqori darajadagi hurmat shakli)

Bu yerda:

- 형 (hyung) – ijtimoiy pozitsiyani bildiradi;
- -께서 / 드셨습니다 – morfologik va sintaktik jihatdan hurmat ifodasini bildiruvchi til vositalaridir [3].

Bu shuni ko‘rsatadiki, munosabat nomlari faqat substansiylar emas, balki gapning boshqa qismlariga ham grammatik ta’sir ko‘rsatadi (fe’l darjasasi, gap uslubi, pragmatik ton).

4. Stilistik va funksional xususiyatlar

Munosabat nomlari funksional jihatdan quyidagilarga xizmat qiladi:

Funksiyasi	Tavsifi
Ijtimoiy ierarxiyani aks ettirish	Yosh, maqom, jins asosida ijtimoiy nisbatni bildiradi
Muloqotdagi rolikni belgilash	So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi masofani ko‘rsatadi
Madaniy qadriyatni uzatish	Hurmat, sadoqat, mehr kabi qadriyatlarni kodlaydi
Formal va informal kontekstda moslashish	Kontekstga qarab turli darajalarda ishlatiladi

Koreys tilidagi munosabat nomlari – bu ko‘p darajali lingvistik hodisadir. Ular leksik jihatdan ma’no va munosabat bildiradi, morfologik jihatdan hurmat yoki yaqinlik darajasini ko‘rsatadi, sintaktik jihatdan gapning tuzilmasiga ta’sir qiladi, stilistik jihatdan esa muloqotning uslubini belgilaydi. Bu nomlar orqali nafaqat til, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlarni va etik normalarni ifodalanadi. Ularning to‘g‘ri tanlanishi til egasining jamiyatdagi o‘rnini va kommunikativ mahoratini aks ettiradi.

Aynan shu bosqichda munosabat nomlari til tizimida mustahkam normativ birlik sifatida shakllangan. Har bir ijtimoiy rolga muvofiq nomlar tizimi tarkib topdi:

형 (hyung – erkakdan erkakka “aka”), 누나 (nuna – erkakdan ayolga “opa”), 오빠 (oppa – ayoldan erkakka “aka”), 언니 (eonni – ayoldan ayolga “opa”), 아버지 (abeoji – ota), 어머니 (eomeoni – ona), qaynota, qaynsingil, kuyov, kelin va boshqalar. Bu nomlar bilan birga foydalaniladigan fe’l shakllari, hurmat qo‘sishchalarini va gap uslublari ham tilni ijtimoiy maqomga moslashtirish vositasi sifatida shakllangan. Masalan, “아버지께서 말씀하셨습니다” (Ota janoblari aytdilar) shaklidagi gap nafaqat ma’lumot uzatadi, balki shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy darajani aniq belgilaydi.

Munosabat nomlarining morfologik tuzilishi ham lingvomadaniy jihatdan ahamiyatlidir. Ular ko‘pincha -님 (-nim), -씨 (-ssi), -어른 (-eoreun) kabi hurmat ko‘rsatuvchi affikslar bilan mustahkamlanadi. Bu qo‘sishchalar shunchaki grammatik vosita emas, balki madaniyatda mavjud bo‘lgan hurmat, ijtimoiy masofa va o‘zaro ehtiromni til orqali kodlashga xizmat qiladi. Masalan, 교수님 (gyosunim – professor), 사장님 (sajangnim – direktor), 어머님 (eomeonim – onaxon) shakllari murakkab ijtimoiy-psixologik konnotatsiyaga ega bo‘lgan lingvomadaniy birliklardir.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida Koreyada sodir bo‘lgan madaniy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar munosabat nomlari tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi. G‘arbiy madaniyat ta’siri, yoshlar submadaniyatining rivojlanishi va

kommunikatsiya vositalarining erkinlashuvi til tizimining soddalashishiga olib keldi. Shu bilan birga, an'anaviy munosabat nomlarining semantik doirasi kengaydi.

Masalan, 오빠 (oppa) atamasi endilikda nafaqat opa-ukalik, balki romantik munosabatlarda, ommaviy madaniyatda mashhur insonlarga murojaatda ham ishlatilmoqda. Boshqa tarafdan, formal kontekstlarda (rasmiy suhbatlar, ta'lim muassasalari, davlat idoralari) an'anaviy murojaat tizimi hanuzgacha qat'iy saqlanmoqda.

Lingvistik jihatdan munosabat nomlari tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik darajalarida faol ishlatiladi. Ular faqatgina ism yoki unvon bo'lish bilan cheklanmay, gap tuzilmasi, so'z tartibi va nutqning rasmiylik darajasini belgilashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tilshunos H.M. Sohn o'zining "The Korean Language" (2001) asarida murojaat nomlari va hurmat darajalari o'rtasidagi grammatik bog'liqlikni chuqur tahlil qilgan. Unga ko'ra, murojaatdagi har bir nomga muvofiq fe'l darajasi va nutq shakli ham mos tanlanadi: 형 (aka) bilan norasmiy "왔어?" (keldingmi?) ishlatilsa, 형님께서 (hurmatli aka) bilan "오셨습니까?" (keldingizmi?) shakli ishlatiladi [2].

Munosabat nomlarining lingvomadaniy asoslari til orqali xalqning qadriyatlarini ifodalashda asosiy vositadir. Koreys xalqiga xos bo'lgan 효 (hyo – ota-onaga sadoqat), 예 (ye – odob), 정 (jeong – mehr-iliqlik), 체면 (che-myeon – obro'ni saqlash) kabi qadriyatlar murojaat nomlari orqali tilda mustahkamlangan. Bu nomlar jamiyatda qanday muomala qilish, kimga qanday murojaat qilish, qay darajada hurmat ko'rsatish kerakligini belgilab beradi. Bu esa tilning funksional yuklamasidan tashqari, madaniy axborot tashuvchilagini ko'rsatadi.

Koreys tilidagi murojaat nomlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Lee & Ramsey (2000), Sohn (2001), Lucien Brown (2011), Hwang (1989), Kim K.H. (2017), Cho Jaehyun va boshqa tadqiqotchilar bu sohada asosiy ilmiy asarlarni yozgan. Ularning ishlari koreys tilida murojaat shakllarining morfologiysi, semantikasi, sotsiopragmatikasini yoritish bilan birga, ularni madaniy qadriyatlar bilan bog'lashning ilmiy asosini ham yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, koreys tilidagi munosabat nomlari – bu shunchaki leksik birliklar emas, balki jamiyatning ijtimoiy strukturasini, madaniy ongini, axloqiy qadriyatlarini va tarixiy taraqqiyotini til orqali aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy tizimdir. Ularning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kungacha saqlanib qolishi koreys xalqining til va madaniyatga bo'lgan yuksak munosabatining natijasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Brown L. (2011). Korean Honorifics and Politeness in Language Learning. John Benjamins Publishing.
2. Sohn H.M. (2001). The Korean Language.
3. Yoon K.-A. (2004). Speech levels and social meanings in Korean. *Language Sciences*, 26 (3), 373-392.
4. 강소산 전은주 (2013). 한국어 교육에서 호칭어, 지칭어 교육 현황과 개선 방안. *새국어교육*. 363-389.
5. 왕한석 (2005). 한국어 호칭어에 대한 연구. 서울: 한글출판사.
6. 이정복 (2014). 한국 사회의 차별 언어. *한국사회언어학회*.
7. 테미르불라토바 인디라 (2013). 한국어와 우즈베크어의 호칭어 지칭어 대비 연구, 석사 학위논문, 충남대학교.
8. 국립국어연구원, 표준국어대사전, 두산동아, 1999.
9. 연세대학교 언어정보개발연구원, 연세한국어사전, 두산동아, 2006.
10. 박갑수, 국어호칭의 실상과 대책, *국어생활* 제19호, 국립국어연구원, 1989.
11. 이익섭. 국어 문법론 강의. 공저 학연사. 1999.
12. 박정운, 한국어 호칭어 체계, *사회언어학*, *한국사회언어학회*, 1997, 507~527 p.